



Volume 1, Issue 1(20), 2025

Journal of Physics and Technology Education



<https://phys-tech.jdpu.uz/>

O‘QUVCHILARINI KASB-HUNARGA QIZIQTIRISHDA NEYROPEDAGOGIK XUSUSIYATLARINI E‘TIBORGA OLISHNING AHAMIYATI

Jabborov Abdug‘ani¹, Xolmatov Pardaboy²

*¹Toshkent Kimyo texnologiyalar instituti, Yangier filiali dotsenti, t.f.n., ²Toshkent gumanitar fanlar universiteti, Pedagogika va psixologiya kafedrası v.b.professori,
Toshkent shahri, O‘zbekiston
e-mail: xolmatov_p@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirishda neyropedagogik xususiyatlarning ahamiyati va uni takomillashtirishga oid mulohazalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: kasb-hunar, o‘quvchi o‘z qiziqishi, qobiliyat, bilim, amalda tadbiq.

Аннотация. В этой статье рассматривается важность нейропедагогических характеристика в профессиональной ориентации учащихся в средних общеобразовательных школах с соображениями по улучшению профессиональной ориентации учащихся.

Ключевые слова: профессия, интересы и склонности, умение, знание.

Annotatsiyon. This article presents reflections on the importance of neuropedagogical traits in vocational guidance for students in general secondary education schools to improve vocational guidance for students.

Keywords and cjncerts: profession, interests and inclinations, skill, knowledge, practical application.

Dunyoning barcha mamlakatlarida, ya’ni jahonda ta’lim-tarbiya jarayoni bilan bir qatorda o‘quvchilarning kasb-hunarga yo‘naltirish mexanizmlari, ularning tashkilotchilik qobiliyatlarni inobatga olgan holda amalga oshirish yaxshi natijalar berishi o‘z isbotini topib kelmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda ta’lim – tarbiya va kasbga yo‘naltirish mazmunini takomillashtirish; xalqaro miqyosda standartlarni yaratish; kasb-hunarga yo‘naltirish jarayonida o‘quvchilarning kompetentligini rivojlantirish; ularning tanlagan kasblarini istiqbolini ko‘ra olishliklari; faol, o‘z fikriga ega, tashabbuskor va kreativ fikrlaydigan mutaxassislarni shakllantirish bo‘yicha yirik loyihalar amaliyotga tadbiq etilmoqda.

Jumladan 2022-2023 o‘quv yilidan boshlab tasdiqlangan namunaviy loyihalar asosida umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining texnologiya fani ustaxonalarini hamda kasb-hunar amaliyoti xonalarini bosqichma-bosqich tashkil etish va

jihozlash choralari belgilangan. Umumiy o’rta ta’lim muassasalari o’quvchilarini kasb-hunarga yo’naltirish nazariyasida kasb tanlashdagi muvaffaqiyat shaxsning qobiliyatlari, qiziqishlari, fe’l-atvori va temperamenti kabi hususiyatlari kasb tomonidan mutaxassisga qo’yiladigan talablarga muvofiq kelishi bilan bog’liqligi e’tirof etiladi. Shunga ko’ra, kasb-hunarga yo’naltirishda boshlangich sinf o’quvchilarini neyropedagogik xususiyatlarini etiborga olishning ahamiyati juda muhim masalalardan sanaladi hamda inson tomonidan kasb-hunarni to’g’ri tanlash asosida quyidagi uchta omil yotadi:

- 1) Insonning individual xususiyatlari, qobiliyatlari, imkoniyatlari, qiziqishlari;
- 2) Kasbning insonga qo’yadigan talablari, xususiyatlari;
- 3) Birinchi va ikkinchi omillarning o’zaro bog’liqligi.

Barcha insonlarning qobiliyatlari, ularning kasb-hunarga yaroqlilik darajasi turlicha bo’lganligi bois, ularni kasb-hunar tanlashga yo’naltirishda mazkur omil muhim ahamiyatga egadir. Shaxsning individual qobiliyatlari tanlagan kasbga mos kelmasligi mumkin. SHu sababli kasb tanlash va kasb-hunarga yo’naltirishda insonning muayyan kasbga yaroqli ekanligini to’rt darajaga ajratilgan:

1. Muayyan bir kasbga yaroqsizlik. Ba’zi kasblar inson salomatligiga yuqori talablar qo’yadi. Bunday kasblar salomatligida kamchiligi bo’lgan insonlarning holatini yanadi og’irlashtirishi mumkin. Agar kasb tanlashda tibbiy talablarga rioya qilinmasa, bu hol kelajakda to’g’rilab bo’lmaydigan talofatlarga olib kelishi mumkin. Muayyan bir kasbga yaroqsizlik odamning shaxsiy xususiyatlari bilan bog’liq bo’lishi ham mumkin.

2. Muayyan bir kasbga yaroqlilik. Bunda odamga u yoki bu kasbiy sohada faoliyat yuritishiga nisbatan qarshi ko’rsatmalar ham, muvofqlik to’g’risidagi tavsiyalar ham berilmaydi.

3. Muayyan bir kasbga moslik. Inson muayyan kasbiy faoliyat bilan shug’ullanishiga qarshi ko’rsatmalar mavjud bo’lmasdan, hatto ba’zi kasbiy muhim xususiyatlarlarga ega. Shu bilan birga u boshqa kasblarda ham ma’lum yutuqlarga erishishi mumkin.

4. Muayyan bir kasbga iste’dod. Bu insonni kasbga yaroqliligining yuqori darajasi bo’lib, uni o’z tengdoshlari orasida ba’zi qobiliyatlari bilan ajralib turishi, aynan shu qobiliyatlar tanlangan kasb uchun ahamiyatli bo’lishidir.

Shu bilan birga, insonning ma’lum bir tor mutaxassislikka umrbod yaroqli yoki yaroqsiz ekanligini hal qilish juda qaltis muammolardan hisoblanadi, chunki hayot davomida inson shakllanadi va rivojlanadi. Kasbiy yaroqlilik insonga butun umrga berilmaydi, chunki ma’lum bir kasb uchun zarur bo’lgan qobiliyatlar, aynan kasbiy faoliyat jarayonida rivojlanadi. Inson turli sharoitlarga moslashib ketish, ya’ni

kasbiy adaptatsiya qobiliyatiga ega, shuning uchun deyarli har bir sog‘lom odam turli kasbiy faoliyatlarni bajara oladi.

Olimlardan S.M.Platak, J.P.Keenan va T.K.Shakelfordlarning kognitiv neyrologik bilimlar evolyusiyasini o‘rganishga oid ilmiy izlanishlarida tirik organizm tomonidan qabul qilinayotgan ma’lumot avval (organizm tomonidan) moslashtirilishi, o‘zlashtirilishi va shundan so‘ng tashqariga uzatilishi qayd etilgan. O‘zlashtirilgan ma’lumotni tashqariga uzatilishida xulq-atvor fiziologik faoliyat yoki boshqa psixologik mexanizmlar ko‘rinishiga ega bo‘lishi mumkin.

Tadqiqotchilar miya tuzilishini o‘rganish inson xulqi va bilish jarayonlari to‘g‘risida shaxsni har tomonlama o‘rganish imkonini beruvchi psixologik bilimlarning metanazariy chegarasini aniqlashga yordam beradi, chunki odamning xulq-atvori va psixofiziologik xususiyatlari nerv tizimiga, bosh miyasi faoliyatiga hamda ijtimoiy muhitga bog‘liqdir, deb xulosa qilganlar. Bosh miya yarimsharlarining har ikkalasi ma’lumotlarni qabul qilish va o‘zlashtirishda turli belgilar tizimi va anglash strategiyalaridan foydalanadi. Po‘stloqning ensa qismida ko‘rish markazi, chakka sohasida eshitish markazi, oldingi markaziy pushtada esa harakat markazi joylashgan. Bundan tashqari, miya yarimsharlarining qismlari bilan bog‘langan nutq ko‘rish, nutq eshitish, nutq harakat va boshqa analizatorlarning og‘zaki va yozma nutq bilan bog‘liq bo‘lgan nerv markazlari mavjud. SHaxs hayoti faoliyatida yarimsharlarining har ikkalasi xam ishtirok etadi. Misol uchun, musiqa eshitish jarayonida o‘ng yarimshar bilan birga chap yarimsharni faollashish xodisasi sodir bo‘ladi. Ushbu fenomen inson musiqani xis etib, uni taxlil qilishiga yordam beradi. SHunga o‘xshash holat inson matnlarni o‘qishi jarayonida ham sodir bo‘ladi – badiiy matnlarni o‘qiganda o‘ng yarimshar faollasha, turli geometrik shakllar bilan bog‘liq bo‘lgan texnik matnlarni o‘qiganda chap yarimshar faollashadi.

O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirishda ularning etakchi yarimsharini xisobga olish ularning kasbiy kamolotidagi muhim omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi bu vazifalarni ayniqsa boshlangich sinf o‘quvchilarini neyropedagogik xususiyatlarini etiborga olish buning uchun o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirishda yetakchi “o‘ng yarimshar”, “chap yarimshar” va “aralash” tiplardagi odamlarda kuzatiladigan quyidagi farqlanuvchi belgilariga e’tibor qaratilishi kerak. O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirishda ularning jender faoliyatiga ham bogliq yoki insonning tez harakati tez gapirishi tez fikrlashiga ham bogliqdir. Inson, ba’zi hollarda, o‘zi bilmagan tarzda, kasbiy yutuqqa erishishiga to‘sqinlik qilayotgan ayrim xislatlarini engib o‘tishga yoki ularning o‘rnini boshqa hislatlar xisobiga to‘ldirishga harakat qiladi. Biroq, kasbiy faoliyatni insonning psixofiziologik

xususiyatlariga to‘g‘ri kelmasligi uni psixosomatik salomatligiga putur etkazadi. Misol uchun kamgap odamdan muloqotchanlikni yoki kamxarakat odamdan tezkorlikni talab qiladigan kasbiy faoliyat bilan shug‘ullanish asabiy zo‘riqishga olib kelishi, natijada ishchanlik qobiliyati pasayib, doimiy emotsional zo‘riqish esa asab xastaliklarini keltirib chaqirishi mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirishda bosh miya yarimsharlari funksional assimetriyasini xisobga olish muxim ahamiyatga ega. O‘quvchi-yoshlar tomonidan kasb-hunarni notog‘ri tanlanishi ularning psixosomatik sog‘ligiga zarar etkazishi hamda ularni ijtimoiy muhitga integratsiyasining qiyinlashishiga olib keladi. Shu sababli o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirishda ular psixikasini xar tomonlama va chuqur yrganilishi hamda individual xususiyatlari va neyrologik imkoniyatlarini xisobga olinishi zarur.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. - T.: "O‘zbekiston", 2017. -102 b.

2.G‘ulomov J.R. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyasi sintezlangan ta’lim / “Pedagogika” J., №2, 2017.

3. G‘ulomov J.R. O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirishda ularning neyropedagogik xususiyatlarini xisobga olish / “Pedagogika” J., № 3, 2017.

4. Yunusova N., Anvarova V., G‘ulomov J. Bolalar bosh miya yarimsharlari faoliyatining ularni gender farqlari bilan o‘zaro bog‘liqligini o‘rganilishiga doir / “Pedagogika” J., -TDPU, 2016, 2-son. - B.37-42.

5.Xolmatov P.Q. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirishni takomillashtirish.Maktab va hayot.4. 2023.

6.Xolmatov P.Q. Monografiya. O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish asoslari. Chirchiq. Zebo-Prints. 2024.148-bet.

Internet saytlari

1.www.tdpu.uz

2.www.pedagog.uz